

**BO'LAJAK KIMYO O'QITUVCHILARINING METODIK
KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM VA
TARBIYANING AHAMIYATI HAMDA ULARNING QIYOSIY TAHLILI**

U.G'.Abdullayeva

FDU Kimyo kafedrası o'qituvchisi

Xalqaro standartlarga monand ravishda ekologik ta'limda atrof-muhit haqida, atrof-muhit yordamida va atrof-muhit uchun ta'limlari mavjud. Bu uchta komponent ekologik ta'lim va tarbiyaning bo'laklangan masalalarini bir butun yechimini ta'minlaydi. Masalan, G'arbiy Yevropada bolalar maxsus xo'jaliklarda yovvoyi hamda uy hayvonlari bilan muloqotda bo'lishi, hattoki ularni parvarish qilish orqali ekologik ta'lim va tarbiyani uch yoshdan boshlanadi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonida esa, ekologlarni kasbiy kompetensiyalarini shakllanish modeli – ekologik ta'limning tarkibiy qismlarini o'zaro bog'liqligini ham tadqiq etish dolzarbligini ko'rsatadi. Bu ekolog mutaxassislarning kasbiy faoliyatini o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy talab bilan bog'liq. Masalan, texnik-ekologlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun yaratilgan modelning asosiy xususiyati – mazkur tarkibiy qismlarning integratsiyalashdan iborat bo'lib, u ta'lim jarayonini kompleks yo'naltirilgan mutaxassislarni shakllantirishni kuchaytiradi.

Birinchisi, ekologik nazariy bilimlar majmuasi asosida insoniyatning tabiatni o'zgartirish va o'zlashtirishdan iborat amaliy faoliyatni tashkil etuvchi ishlab chiqarish, texnika, texnologiya taraqqiyotini oqilona tashkil qilish. Ikkinchisi, tarixiy ekologik tajribalar asosida ekologik ta'lim – tarbiya ijtimoiy institutlari yordamida kishilarda ekologik ong, tafakkur va dunyoqarashini rivojlantirishdir. Bu yo'nalishlarni umuminsoniy manfaatlar negizida uyg'un taraqqiy ettirish, pirovard natijada faol ekologik madaniyatni shakllanishida va ularning tabiatni muhofaza qilish faoliyatida katta rol o'ynaydi. Zamonaviy olam shunday davrni boshidan o'tkazyaptiki, yoshlarda ekologik madaniyatni tarbiyalash ta'lim faoliyatining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ekologik vaziyat o'ziga xos xususiyatga ega. Inson tabiat qudratini kuch bilan emas, balki muvozanatni buzmaganda holda oqilona muvofiqlashtirishi kerak.

Umumiy o'rta ta'limda Biologiya, Geografiya, Tarix, Tabiatshunoslik kabi fanlarga integratsiya qilingan holatda olib boriladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida esa ekologik ta'lim to'liq joriy qilinmagan va soatlar miqdori kam bo'lgani uchun ham aksariyat holda turdosh fan o'qituvchilari tomonidan olib

boriladi. Xuddi shunday holat Oliy ta'limda ham kuzatiladi. Buning natijasida ekologik ta'limda, ya'ni kadrlar tayyorlash talabalarning kompetensiyasiga tayanmagan tarzda olib boriladi. "Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" bo'yicha ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejasida 2021 yilga qadar noekologik fanlar 70-75% ni tashkil qilar edi.